

Matni Tarjima Qilishda Pragmatika Tushunchasining Talqini

Navruz Imamov¹, Nuriddinov SHahzod², Abdukarimov Islom³, O'roqov Humoyun⁴

Annotatsiya: Matni tarjima qilishda, o'zining ichki tabiati va xususiyatiga ko'ra, shubhasiz, ko'plab sohalarning bir qismini ifoda etadi. Shunday sohalardan biri pragmatikadir. Tarjima va pragmatika o'rtasidagi aloqa anglashilmas darajada namoyon bo'lishi mumkin, ammo bu ikki sohani yaqindan o'rganish ularning ahamiyatli tomonlarini namoyon qiladi.

Kalit so'zlar: Pragmatika, tilshunoslik, metod, xorijiy til, nutq, til vositalari, matn, og'zaki nutq.

Pragmatika tushunchasi amerikalik olim Charlz Pirs tomonidan barcha bilim sohasini birlashtiruvchi fan sifatida qaralgan semiotika doirasida yuzaga keldi va rivoj topdi (qarang: Susov 2006; Safarov 2008). Pragmatikani semiotikaning alohida sohasi sifatida qarash haqidagi fikrni birinchilardan bo'lib, Ch.Morris bildirgan edi. Lisoniy belgilar tasnifini yaratgan bu olim semiotikani uch mustaqil qism, ya'ni lisoniy belgilarning predmetga nisbatan munosabatini o'rganadigan semantika, belgilarning bir-biri bilan munosabatini tavsiflovchi sintaktika hamda belgilarning ulardan foydalanuvchi shaxslarga bo'lgan munosabatini o'rganuvchi pragmatikaga ajratishni taklif qildi (Arutyunova, Paducheva 1985: 8-9). Keyingi yillarda ushbu yo'nalishlardan semantika va sintaksis jadal taraqqiy qilgan bo'lsa, pragmatikaga e'tibor sustroq bo'ldi. Faqat o'tgan asrning oxirgi choragiga kelib, pragmatika tilshunoslikning mustaqil yo'nalishi sifatida shakllana boshladi.

Dastlabki nashrlarda pragmalig-vistikaning ob'ektini aniqlashda bir tomonlama yondashuv ustuvor bo'lib, ularda til birliklarining ta'sir ko'rsatish imkoniyatlari oldingi o'rinda turgan edi. Masalan, L.A.Kiselyova tilning pragmatik va ta'sir ko'rsatish xususiyatlarini to'lig'icha tenglashtirgan bo'lsa (Kiselyova 1978:11), G.Ya Solganik lisoniy vositalar tanlovini pragmatik hodisa ekanligini qayd etadi (Solganik 1981). Shuningdek, V.L.Naer nutqiy tuzilmaning pragmatik xususiyatini "so'zlovchining ongli ravishda, maqsadli ta'sir ko'rsatish istagi", deb ta'riflaydi (Naer 1981:107).

Pragmaligvistika rivojining dastlabki bosqichlarida pragmatika va semantika farqlanishi G.Morrisning semantik ta'limotiga asoslangan edi: birinchisi lisoniy belgi va undan foydalanuvchi munosabati bilan bog'lansa, ikkinchisida esa, lisoniy belgilarning nomlanayotgan ob'ekt bilan munosabati yetakchi o'ringa chiqadi (Terent'eva 1983; Aznaurova...). aytish joizki, ushbu ishlarda o'rganish predmeti asosan lug'aviy birlik-so'z bo'lib, bunday holda so'zning ma'nosida nima aks topishini ma'lum darajada aniq ko'rsatish imkoni bor va uni semantikaning ob'ekti sifatida qarashga undaydi. So'zning nomlanayotgan narsa-hodisa bilan bog'liq bo'lmagan qo'shimcha ma'nosi esa pragmatika hududiga qoldiriladi.

T.A. van Deyk, shuningdek, pragmatikani sotsiolingvistika va psixolingvistikadan farqlash lozimligini uqtiradi. Bundan tashqari, tavsifiy (deskriptiv) pragmatikada tildan foydalanishning amaliy qoidalari shakllantirilsa, nazariy, "mavhum" pragmatikada esa kuzatuvlar asosida umumiy kategoriyalar ajratilib, ularning o'zaro aloqasi o'rganiladi. Oqibatda, pragmatik tadqiqotlarda deytik iboralar ham tahlil qilinib, olmoshlar va at that time ko'rinishidagi birliklarning qo'llanilishi so'zlovchi nuqtai nazaridan tavsiflanadi. Olim tomonidan nutqiy aktlar nazariyasini pragmaligvistikaning ajralmas qismi, deb ta'riflanishi alohida e'tiborga loyiq.

¹ Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Tillarni o'qitish kafedrasida katta o'qituvchisi

² Samarqand iqtisodiyot va servis instituti IK-722 guruh talabasi

³ Samarqand iqtisodiyot va servis instituti IK-722 guruh talabasi

⁴ Samarqand iqtisodiyot va servis instituti IK-722 guruh talabasi



Pragmalingvistika rivojining dastlabki bosqichlarida pragmatika va semantika farqlanishi G.Morrisning semantik ta'limotiga asoslangan edi: birinchisi lisoniy belgi va undan foydalanuvchi munosabati bilan bog'lansa, ikkinchisida esa, lisoniy belgilarning nomlanayotgan ob'ekt bilan munosabati yetakchi o'ringa chiqadi (Terent'eva 1983; Aznaurova...). aytish joizki, ushbu ishlarda o'rganish predmeti asosan lug'aviy birlik-so'z bo'lib, bunday holda so'zning ma'nosida nima aks topishini ma'lum darajada aniq ko'rsatish imkoni bor va uni semantikaning ob'ekti sifatida qarashga undaydi. So'zning nomlanayotgan narsa-hodisa bilan bog'liq bo'lmagan qo'shimcha ma'nosi esa pragmatika hududiga qoldiriladi. Nutqiy aktlar doirasida, xuddi matn tilshunosligida bo'lganidek, matn mazmuni va uzatilayotgan axborot mundarijasining qaysi qismi doimiyligini yoki muallif maqsadiga bog'liq holda shakllanganligini ajratish qiyin masala. Zotan, muallif maqsadining nutqiy tuzilmada voqelanishi semantikaning ishtirokisiz kechmaydi. Shu sabab, semantika va pragmatikani "ob'ektiv mavjudlik-muallif tomonidan kiritilganlik" qarama-qarshiligida farqlash qiyinlashadi. Oqibatda, ushbu muammo bilan qiziqqanlarning xulosalari turlicha: bir guruh tadqiqotchilar (T.A.van Deyk, G.Kamp, A.Kasher, G.G.Pocheptsev, V.V. Bogdanov va b.) nutqiy aktlar nazariyasini to'lig'icha pragmatika sohasiga oid, deb hisoblaydilar. Amerikada nashr qilingan *Syntax and Semantics* (1978) to'plamining mualliflari semantika va pragmatikani nutqiy formulalar qo'llanishining doimiyligi yoki favqulodda ekanligiga nisbatan chegaralash yo'lini qidiradilar. Bu esa nutqiy aktlarning bevosita va bilvosita turlarga taqsimlashga olib keladi.

Har bir tildagi matnlarni tarjima qilish jarayonida ma'no kasb etuvchi gaplar va tagma'noga ega so'zlar sifatida ikki bosqichdan o'tadi. Shunday bo'lsada toki nutq faoliyatining madaniyatlararo shakli mavjud emas ekan tarjimon uchun tarjimaning pragmatik muammolari ham mavjud bo'ladi [1-2].

Shunga ko'ra, matnni tarjima qilishda hech qanday xatoliksiz ma'nosini to'g'ri etkazib berish uchun umummadaniy pragmatik bilimlaridan foydalanishiga to'g'ri keladi. Nutq hodisasi va emotsional ta'sirni yaqindan o'rganish tabiiyki, tarjimaning bir nechta nazariyalarini keltirib chiqaradi, ayniqsa ekvivalent ta'sir yoki harakat prinsipiga va boshqa tilda qanday bo'lsa shunday aytish kerakligini ta'kidlovchi «yolg'on talqin»ga asoslangan dinamik ekvivalentlik. Har ikkala nazariya ham nutq faoliyati va hodisasi madaniyatlararo farq qilishini tan olgan holda tarjimonlarni madaniyatlararo pragmatik muvaffaqiyatga erishishga undaydi.

Sh.Safarovning qaydicha, pragmatikani keng ma'noda anglamoq darkor, u tilshunoslikning semantika va sintaksis sohalarida o'rganiladigan masalalarni ham qamrab oladi va o'ziga xos umumlantiruvchi yo'nalish vazifasini o'taydi. Shunga nisbatan, pragmatik nazariya so'zlovchi va tinglovchining gap yoki matn propozitsiyasini bir xilda qabul qilishini e'tiborga oladi (Safarov 2008:43).

Pragmatikaning uzatilishi va qabul qilinishiga nisbatan taqsimoti turli yo'nalishdagi tadqiqotlarni umumiy soha atrofida birlashtirishga imkon yaratadi. Ch.Morris bergan ta'rifdayoq pragmatikaning sotsiolingvistika va psixolingvistikadan uzoq turmasligi ayon bo'lgan edi. Chunki insonga ta'sir ko'rsatishning lisoniy mexanizmlari tadqiqi bu yo'nalishlarning barchasi uchun bir xilda xosdir. Ularning barchasi yagona bir pragmatik munosabatning turli jihatlari bilan qiziqadi. Aniqrog'i, lisoniy ta'sir mexanizmlarining sinov-tajribalar orqali o'rganilishi (sotsiolingvistika va isixolingvistikada) qabul qiluvchi pragmatikasini o'rganish uchun qulay bo'lsa, nutqiy aktlar va deytik iboralar tahlili esa axborotni uzatuvchining pragmatikasini namoyon qiladi. Oxirgi holatda asosiy e'tibor lisoniy shaklning so'zlovchi maqsadini ifodalashga naqadar mos kelishi masalasi muhimlashadi. Matnning pragmatik imkoniyatlarini bilish, o'z navbatida, boshqa mundarijadagi pragmatikani, ya'ni axborot yoki xabar pragmatikasini yuzaga keltiradi. Ushbu turdagi pragmatik mazmun tarjima pragmatikasiga ham taalluqli.

Matnni tarjima qilishda asliyatga shaklan va mazmunan monand tarzda yaratilishining birdan-bir sharti tarjimonning o'z tilida asliy monand lisoniy vositalar tanlab ishlata olishidir. Bu mas'uliyat uning zimmasiga avvalo asliyat ma'no vazifasini bekamu-ko'st ado etish, so'ngra xotirasida shakllangan fikrni o'z tili madaniyati va me'yori asosida to'la-to'kis ifoda etish vazifasini yuklaydi.

So'nggi yillarda tadqiqotchilar e'tiborini o'ziga ko'proq jalb qilib kelayotgan tilning pragmatik jihatlari tarjimonidan chuqur lingvistik bilimdan tashqari yana ko'pgina boshqa fanlar, madaniyatlar



ma'lumotlaridan ham xabardor bo'lishni talab qiladi [3]. Matni tarjima qilishda pragmatik vositalardan o'rinli foydalanish esa aslyatda ifodalangan zaruriy ma'noni to'la-to'kis etkazib berishga xizmat qiladi. Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, mazkur dissertatsion ishning amaliy ahamiyati shundan iboratki, tarjimaning pragmatik xususiyatlari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lib, ularning tahlilini, tarjimada berilishini, asosli misollar bilan yoritilgan bo'lib mavzu bo'yicha talabalar uchun qo'shimcha yoki asosiy qo'llanma sifatida o'zlarining mustaqil ishlarida, referatlarida foydalanish yoki ma'ruza matnlariga maxsus mavzu sifatida kiritish mumkin [5-6].

Til birliklari vositasida bajariladigan ta'sir haqida gap ketganida tadqiqotchilar "pragmatika" terminiga murojaat qilishga o'rganib qolganlar va "pragmatik ma'no", "pragmatik axborot", "pragmatik vazifa" kabi birikmalarda qo'llanilayotgan bu tushunchaga izoh berishni ham hech kim o'ylab o'tirmaydi. Pragmatika til belgilarining nutqdagi harakatini o'rganuvchi tilshunoslikning tadqiqot doirasidir. Lingvistik pragmatika aniq shaklga ega emas. Uning tarkibiga so'zlovchi va tinglovchi, ularning nutq jarayonidagi o'zaro munosabatiga bog'liq masalalar majmui kiradi.

Pragmatika tilshunoslikning nisbatan yangidan shakllangan, insonning nutq faoliyatini o'rganishga, bunday faoliyatning maqsadi, mazmuni, bunday maqsad va mazmunning og'zaki va yozma matnda verbal va noverbal ifodalanish vositalarini, ularning nutq aktidagi o'rnini, kommunikativ ta'sirini, so'zlovchi va tinglovchi nutqidagi turlicha munosabatlarni lisoniy belgilarda ifodalanishini o'rganuvchi fan tarmog'idir.

Pragmatika tushunchasi, odatda, ta'sir ko'rsatish imkoniyati bilan bog'liq holda qaralib, muloqot sharoitida yuzaga keladigan mazmun orqali anglashiniladi. Shunga binoan, biz pragmatikani tilning va uning alohida birliklarining, nutqiy tuzilmalarning adresatga ta'sir o'tkazish xususiyati sifatini talqin qilishni ma'qul ko'ramiz. Shuningdek, pragmatik mazmun nutqiy birliklar yoki matnda ifodalangan axborotning adresat ongida yangi tushunchalarni shakllantirish imkoniyatiga ega bo'lgan qismidir. "Pragmatik vositalar" tushunchasi qo'llanilishida esa ma'noni yoki uning komponentlarini ifodalovchi lisoniy vositalar nazarda tutiladi, ammo ushbu vositalarning assotsiativ aloqalari matn, nutqiy birliklarning pragmatik mazmunini shakllantirishi shart. [6-7].

Gapiruvchi shaxsning tinglovchi diqqat-e'tiborini tortish, ularga kommunikativ ta'sir qilish, qiziqtirib qo'yish, fikrini jalb qilish yoki aksincha, chalg'itish, hayajonga solish, to'lqinlashtirish, ishontirish yoki aldashga urinishida so'zning, so'z birikmasining ekspressiv-emotsional-baholovchi konnotativ ma'nosini, ya'ni pragmatik ma'nosini tadqiq qilish ehtiyoji vujudga keldi.

Matinni tarjima qilish jarayonida ikki holat ro'y beradi, ya'ni birinchidan, tarjima qilish uchun o'girilayotgan narsani tushunish, anglash va talqin qilish kerak. Bu hodisa ona tilida ro'y beradi. Ikkinchidan, asar o'girilayotgan tilda muvofiq ifoda vositalari, ya'ni so'z, so'z birikmasi, grammatik formalarni topish lozim.

Til birliklarining uslubiy bo'yoq kasb etish xususiyati turli tillarda uslubiy va pragmatik jihatlardan o'zaro mos kelishi yoki mos kelmasligi mumkin. Tillarning bunday xususiyati leksik vositalarni tanlash to'g'risida qaror qabul qilish imkonini beradi. Tarjimaning bunday tahlili mazkur sohadagi tasavvur va qarashlarni boyitadi. Badiiy adabiyotlarda pragmatikaning birinchi vazifasi kitobxonga estetik ta'sir ko'rsatishdir. Agar aslyatdagi pragmatik ta'sir tarjimada mavjud bo'lmasa, u kitobxonda hech qanday reaksiya uyg'ota olmasa, demak, aslyatning pragmatik xususiyati qayta yaratilmagan va bunday tarjima hech qanday qiymatga ega emas.

Ba'zan shunday holatlar ham kuzatiladiki, tarjimada zarur bo'lgan ilmiy-texnikaviy axborot undan mutaxassislar foydalanishi uchun aslyatdagiga nisbatan yanada tushunarliroq, aniqroq shakllarda bayon qilingan bo'lishi mumkin. Bunday hollarda tarjima asosiy pragmatik maqsadni aslyatdan ko'ra yaxshiroq amalga oshirgan bo'ladi.

Bir so'z bilan aytganda, pragmatik xususiyatlarning tarjimadagi ahamiyati va roli juda muhimdir. Shu bois tarjimonlardan aslyatning pragmatik xususiyatlarini to'g'ri va haqqoniy yoritish talab etiladi. Yuqoridagilarni umumiy qilib aytadigan bo'lsak, tarjimada pragmatikaning roli va ahamiyati quyidagilardan iborat:



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. "Adabiyot, san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi", T.: Xalq so'zi, 2018, 07.08.
2. Cummings L. Pragmatics: A Multidisciplinary Perspective. – Edinburgh: EUP, 2005. 336 p
3. Abdullayeva G.G. Sinxron tarjima-murakkab kognitiv jaraynlar majmui//Chet tillarni o'qitishda kommunikativ yondashuv: til, tafakkur, madaniyat. Buxoro. BuxDU. 2016. 138-139 b.
4. Dijk T.A. van. Pragmatics and poetics // Pragmatics of language and literature. – Amsterdam: North Holl. publ. comp., 1976. – p 23-57.
5. Axmedova, S. R. (2021). Chet tillarni o'rganish va undagi metodlarning ahamiyati. Science and Education, 2(11), 1076-1080.
6. Lyons J. Semantics. Vol. 2-3. – Cambridge: Cambridge Univ. Press, 1977. – 897 p.
7. Syntax and Semantics. Vol. 9. Pragmatics. – N.Y.: Academic Press, 1978. – p. I-XIII.

